

## LIRIK MATNLAR TARJIMASIDA MILLIY KOLORIT TUSHUNCHASI VA TARJIMADA BERILISHI

*Sattorova Dildora*

*O`zbekiston Jahon Tillar Universiteti magistranti*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada badiiy tarjimada milliy koloritni saqlash va milliy xos soʻzlarni tarjima qilishda eng maqbul usullardan foydalanish toʻgʻrisida olib borilganizlanishlar va ularning xulosalari kiritilib oʻtilgan.

**Kalit soʻzlar:** milliylik, mahalliy, realiyalar, urf odat, analogiya, ekvivalentlik, transliteratsiya.

### ABSTRACT

This article presents research on the preservation of national color in literary translation and the use of the most appropriate methods in the translation of national words and their conclusions.

**Keywords:** nationality, local, realities, , analogy, equivalence transliteration.

“Kolorit” atamasi oʻzbek tilining izohli lugʻatida *rang* soʻzidan olingan deb hisoblansa, oʻzbek tilidagi ruscha-internatsional oʻzlashma soʻzlar izohli lugʻatida *rang*, boyoq maʼnosidagi lotincha *color*, italyancha *colorito* orqali rus tiliga va u orqali oʻzbekchaga oʻzlashgan, deb qayd qilingan. O.S.Axmanovanning “Lingvistik atamalar lugʻati”da bu inglizcha *colour(ing)* soʻzidan olingan, degan maʼlumotni beradilar.

Kolorit deganda tasviriy sanʼatda real hayotni haqqoniy aks ettirish uchun ishlatiladigan ranglarning oʻzaro mutanosibligi tushuniladi. Adabiyotda esa badiiy asarning oʻziga xos xarakterli xususiyati: milliylik, davr, maʼlum joyning oʻziga xos jihatlari ifodasi koʻzda tutiladi. Kolorit biror narsaning oʻziga xos belgi va xususiyatlari majmuini bildiradi. Maʼlumki, tarixan tashkil topgan, madaniyati, tili, hududi, iqtisodiy hayoti va ruhiy xususiyatlarning umumiyliги asosida vujudga kelgan kishilar guruhiga millat deyiladi. Tarjima jarayonida koʻndalang boʻladigan eng muhim qiyinchiliklardan biri original asarning milliy ruhini boʻlak muhitga koʻchirishdir. Endi biz milliylikning kichik bir belgisi – realiyalar haqida toʻxtalamiz.

Bolgariyalik tarjimashunos olimlar S.Valaxov va S. Florin realiya deb narsalar, tushunchalar, voqea-hodisa, geografik muhitga xarakterli, madaniyat, moddiy va maishiy turmush yoki xalqlar, millatlar, yurt, qabilalarning ijtimoiy-tarixiy xususiyatlarini bildiradigan xalq tilidagi soʻz va soʻz birikmalarini aytadi<sup>1</sup>. Komiljon

Jo'rayev esa bu olimlarga ergashgan holda realiyalarni xos so'zlar deb ataydi. Uning fikricha, realiyalar ko'pincha tarjimaga bo'sunmaydigan ekzotik leksikadir.

Milliylik u yoki bu millatning ma'naviy faoliyati va moddiy hayotidagi o'ziga xosliklardir. Ma'naviy faoliyat kishilarning xarakteri, tafakkur tarzi, ruhiyati, intilishlari, qiliqlari, yumor xususiyatlari va boshqalarni o'z ichiga oladi. Moddiy hayot esa urf-odat, rasm-rusum, marosimlar, kiyimlar, uy-ro'zg'or anjomlari, cholg'u asboblari, pazandachilik, ismlar va hokazolar. Badiiy asarda aks etgan ana shu milliy xususiyatlar yig'indisi adabiyotshunoslikda **milliy kolorit** deyiladi.

Adabiyotshunoslikda yana mahalliy kolorit degan tushuncha ham mavjud. Mahalliy kolorit – biror mahalliy sharoit, urf-odat yoki joyga xos turmush, peyzaj va til xususiyatlarini badiiy adabiyotda aks ettirish. Ana shu milliy kolorit bilan bog'liq bo'lgan so'z va atamalar realiyalar, boshqacha aytganda, milliy xos so'zlar deyiladi. Realiza lotincha so'z bo'lib, buyumga, narsaga oid degan ma'noni bildiradi.

H. Hamroyevning fikricha, realiyalar asar tilining ajralmas qismi bo'lib, ular yordamida muallif qahramon obrazini yaratadi, xalqning milliy xususiyatini tasvirlab beradi. Ular badiiy asarning milliy koloritini ifoda etadi, turli uslubiy vazifalarni bajaradi, hodisa va predmetlarning xususiyatini haqqoniy, to'g'ri tasvirlashga yordam beradi. Shuning uchun ham realiyalar badiiy tarjimaning tarjimonni qiynab qo'yadigan, tarjimani murakkablashtiradigan, ko'pincha uni chalg'itadigan jihatlarni tashkil etadi.

R.Fayzulleyeva talqiniga ko'ra esa, realiyalarga milliy taomlar, kiyim-kechaklar, milliy cholg'u asboblari, ro'zg'or anjomlari, nomlar, taxalluslar, laqablar, shahar, qishloq xususiyatlari, me'morchilik, geografik nomlar, tabiat manzaralari, hayvon va o'simliklarning nomlari, daraja, unvon, tabaqa va boshqa bo'linishlarni ifodalovchi so'zlar, muassasalar, tashkilotlar, diniy marosimlar va boshqa etnografik belgilarni bildiruvchi so'z va iboralar kiradi.

G'.Salomov bu haqida shunday yozadi: "Milliy o'ziga xoslik deganda adabiy asarda tasvirlangan xalq hayotining moddiy sharoiti, ma'naviy turmush tarzi, tabiati, o'rmon, tog', dala, suv, zamin, osmon hamda afsona va cho'pchaklari, tarixi va dini, adabiyoti va san'ati hamda boshqa maxsus narsalar haqidagi tasavvurlari, tushunchalari, atamalari tushuniladi. Kiyim-kechaklar, udumlar, urf-odatlar, pul birliklari va hokazolar ham milliy xoslik komponentlari jumlasiga kiradi".

Baynalmilallik bilan bir qatorda milliylik xususiyatini ham o'zida mujassam etgan tilning lug'at tarkibi o'zi mansub bo'gan til jamoasining moddiy-ijtimoiy hayotini, chunonchi, milliy urf-odat va an'analarni, geografik tasavvurini, ma'naviyati va dunyoqarashini, diniy e'tiqodini, axloqiy me'yorlarini, tafakkur yo'nalishini moddiy aks ettiradi. Bu borada G'.Salomov shunday yozadi: "Milliy ahloq deganda men odamlarimizga xos hayo, ibo, sharm, mehmondo'stlik, sabr-qanoat, mulohazakorlik, andisha, shafqat, oilaga, ota-onaga, ayolga hurmatni tushunaman".

Tillar orasida tafovut odatda bir xalq moddiy hayotida mavjud muayyan tushunchalar, voqea-hodisalar, urf-odatlarining ikkinchi xalq turmush tarzida uchramasligi, shu tufayli ular nomlarining ham ayni xalq tilida tabiiy ravishda yo'qligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, lug'aviy ekvivalentlik munosabatida bo'lgan ayrim ikki til juftliklari bir-birlaridan biror xususiyatlari bilan o'ziga hos ravishda farq qilishlari mumkin. Bu hol til birliklarining milliy xususiyatini belgilash baravarida ularning tarjimada o'zaro almashinuvlariga to'sqinlik qiladi.

“Har bir tilda o'sha tilning sohibi hisoblanmish xalqning o'zi ko'proq mashg'ul bo'lgan xo'jalik, ishlab chiqarish sohalari hamda uni o'rab turgan tabiiy muhit (iqlim, hayvonot va o'simliklar olami, tog', cho'l, sahro va hokazo)ga aloqador so'zlar, atamalar, iboralar boshqa tillarga nisbatan ko'proq yoki kamroq bo'lishi mumkin”, - deb yozadi G'.Salomov o'zining “Tarjima nazariyasiga kirish” kitobida.

Xulosa qilib aytganda, Asliyatning o'ziga xosligi, asosan, uning tarkibidagi lisoniy vositalarning milliy xususiyati bilan belgilanar ekan, asliyatning badiiy-g'oyaviy zaminini asliymonand tiklash asarning milliy bo'yog'ini qayta yaratish bilan bog'liqdir. Shuning uchun ham tarjimada milliy xususiyatni tiklash masalasi keyingi paytlarda tarjimonlarning ham, tarjimashunoslarning ham e'tiborini o'ziga borgan sari ko'proq tortib kelmoqda. Chunki tarjimaviy nuqsonlarning ko'pchiligi milliy xususiyatni aks ettiradigan til vositalari ulushiga to'g'ri kelmoqda. Zero, tarjima amaliyotida hanuzgacha yo'l qo'yib kelinayotgan xato va kamchiliklarning ko'pchiligi tarjimada milliy xususiyatni tiklash bilan bog'liq bo'lib, bu masala hanuzgacha nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham xususan ham qoniqarli darajada hal qilingan emas.